

## TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH

**Boborahmatova Shohsanam Ibodulla qizi**

*Termiz davlat universiteti*

*3-kurs talabasi*

**G‘aniyeva O‘g‘ilshod Eshaliyevna**

*Termiz davlat universiteti*

*3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning mohiyati – bank aktivlari va passivlaridan sarnarali foydalanish hamda ularni joylashtirish, ko‘rsatilgan bank xizmatlari yuzasidan daromad (foizli)larni hamda bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha xarajatlar (foizli) ni, shuningdek, byudjet va byudjetdan tashqari to‘lovlarni o‘z vaqtida hisoblab, yakuniy moliyaviy natijalarni to‘g‘ri aniqlashdan iborat.*

**Kalit so‘z:** *Tijorat. Foiz. Buxgalteriya hisobi. Operatsiya. Xarajat.*

### ACCOUNTING IN COMMERCIAL BANKS

**Annotation.** Accounting in commercial banks is an urgent task in the conditions of modernization of the economy. The essence of the organization of accounting in commercial banks- from bank assets and liabilities effective use as well as their accommodation, income from the provided banking services, and expenses for the implementation of banking operations, as follows it consists of calculating the budget and extra- budgetary payments on time and correctly determining the final financial.

**Keywords.** *Commerce. Persent. Accounting. Operation. Cost.*

Banklarda buxgalteriya hisobi avvalo, uning korxonalar, budjet va boshqa kredit muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tubdan farq qiladi. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish boshqa korxona va tashkilotlarnikiga qaraganda o‘zining operativligi tufayli ajralib turadi. Har kuni soat 16-00 gacha operatsion kun hisoblanadi. Bu davr mobaynida arnalga oshiriladigan operatsiyalar o’sha kuniyoq mijozlarning analitik hisobidagi shaxsiy hisob varaqlarda aks ettiriladi va kundalik balans orqali umumlashtirish usuli bilan nazorat qilib boriladi. Bu esa pul mablag’larining saqlanishi, kundalik pul aylanmasi va hisob-kitob kredit munosabatlarining holatini nazorat qilish imkonini, hamda kassa rejasining bajarilishini nazorat qilish irnkoniyatini beradi.Ish va pul munosabatlarini aylanishini

ta'minlash

imkonini

beradi..



Buxgalteriya hisobining obyektlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblashda natura, mehnat va puldan foydalanish mumkin. Shu sababli tijorat banklarida buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish mumkin. Bunda quyidagi vazifalarga e'tibor qaratilishi talab etiladi. Bunda quyidagi asosiy vazifalarni bajarish talab qilinadi.

- hisob-kitoblardagi rnablag'lar aylanishini tezlashtirish
- rnijozlarga tez va puxta xizrnat ko'rsatish
- hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish

- bankdan pul rnablag'lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalardan foydalanishning qonuniyligini ta'minlash; .

- operatsion kun davomida bajarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarning qonuniyligini hamda to'g'rilingini nazorat qilish;

- tijorat banklarida bajarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha moliyaviy natijalami shaldlantirish va ulami to'g'ri aniqlash: -

-kundalik balansni tuzish uchun dastlabki hujjat ma'lumotlarini qayta ishslash va ularning har bir hisobvaraqlari bo'yicha taqsimlashni samarali tashkil etish;

- oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish hamda tegishli nazorat organlariga o'z vaqtida taqdim etib borishdan iboratdir.

Tijoral banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining qonuniy va uslubiy asoslari asos qilib olinadi. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi lo'g'risidagi qonuni, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari Buxgalteriya hisobining xaiqaro standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqarilgan me'yoriy hujjatlari asosiy hujjatdir. Ushbu qonuniy hujjatlar buxgalteriya hisobini yuritishda tartibga soluvchi qonuniy hujjatlardir. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ni tashkil etishda uning nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirish harnda buxgalteriya hisobl va hisobotlarini tuzishga oid me'yoriy hujjatlami ham bilish zarur.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish va uni tashkil etishni nazorat qilish, shuningdek, bankning o'zining, mijozlaridan qabul qilingan va banklararo hisob-kitob-pul hujjatlarini rasmiylashtirish, ularni qayta ishslash hamda bank operatsiyalarini qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar tarkibi tushuniladi. Buxgalteriya apparatining ish faoliyatini arnalga oshirishda tijorat banklarining bosh buxgalterlarini ma'sul shaxs sifatida tan olish mumkin. Ma'sul shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida ish ko'radilar va ishni bank filiali rahbari amalga oshiradi. Markaziy bank o'zining banklarni buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishni tartibga solib turuvchi normativ hujjatlar ishlab chiqarishda mustaqillikkka ega tashkilotdir. O'zbekistonda tijorat banklar o'zining vakolatidan foydalangan holda ushbu normativ hujjatlarda banklar faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda ayrim cheklovlar kiritish imkoniyatiga ega. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishga doir asosiy normativ hujjat 1834-sون Yo'riqnomalar hisoblanadi. Bu Yo'riqnomada banklarda buxgalteriya hisobi ishlarini va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, 1996-yil 30-avgust.
2. 2.O'zbekiston Respublikasining «AuditorIik faoliyati to'g'risidagi Qonuni. «O'zbekiston ovozi» gazetasi 2000-yil 3-iyun.
3. «Mahsulot (ish xizmatIar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda rnoIiyaviy natijalami shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizorn)
4. O'zbekiston Respublikasi VazirIar Mahkamasining 54-sonli Qarori
5. 05.02. 1999-y.
6. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartIari.
7. Q'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 21-son BHMS

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

- a. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2002.
- b. Do'smuratov R.D., Masharipov O.A. Fermer xo'jaligida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. Toshkent-2007. -90 b.
- c. Do'smuratov R.D., Jo'raev B.M., Davletov I.R. Fermer xo'jaliklarida qo'llaniladigan dastlabki hujjatlar va ularni rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. -T.: ToshDAU tahririyyat – nashriyot bo'limi, 2010 yil.

- d. Zavalishina I. Yangicha buxgalteriya hisobi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004 yil.
- e. Ibragimov A., Ochilov I., Qo‘ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi./O‘quv qo‘llanma. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. - 444 b.
- f. Пизенгольц М.З. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве. 1-2 том. М.: Финансы и статистика, 2001.
- g. Sotivoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. I-III том. -T.: O‘zBAMA Nashriyot markazi, 2004.
- h. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. -S.: 2007.
- i. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005. -544 b.
- j. G‘ulomova F. Buxgalteriya hisobidan mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000. -368 b.

### INTERNET SAYTLARI:

8. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi sayti
9. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) –O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
10. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
11. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) – “Norma” MChJ sayti
12. <http://www.kbm-info.de/content/maschinenvermittlung>
13. <http://www.landwirtschaftskammer.de/landwirtschaft/beratung/pdf/erfahrungssaetze-rh.pdf>